

TANQIDIY TAFAKKUR VA UNING SHAXS SHAKLLANISHIDAGI O'RNI

Isaqova Feruza

Andijon davlat pedagogika institute

*Filologiya fakulteti o'zbek tili va
adabiyoti ta'lim yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada tanqidiy tafakkurning mohiyati, uning psixologik va pedagogik asoslari hamda shaxs shakllanishidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish omillari, uning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni va shaxsning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishdagi roli yoritiladi. Tadqiqot natijalari tanqidiy tafakkurning insonning qaror qabul qilish jarayonida, muammolarni hal etishda hamda ijtimoiy moslashuvda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Tanqidiy tafakkur, shaxs shakllanishi, mustaqil fikrlash, kognitiv jarayonlar, ta'lim tizimi, analiz, sintez, baholash, ijodiy fikrlash.

Zamonaviy jamiyatda insondan nafaqat bilimga ega bo'lish, balki uni tahlil qilish, tanqidiy baholash va amaliyotda qo'llash qobiliyati ham talab etiladi. Shu nuqtai nazardan tanqidiy tafakkur tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Tanqidiy tafakkur – bu insonning axborotni tahlil qilish, solishtirish, asosli xulosalar chiqarish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatidir. Bugungi globallashtirish va axborot oqimi kuchaygan davrda shaxsning mustaqil fikrlashi uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun muhim omil hisoblanadi. Axborotning ko'pligi va turli xil manbalardan kelib tushishi insondan uni tanlab olish, tekshirish va to'g'ri baholashni talab qiladi. Aynan shu jarayonda tanqidiy tafakkur asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shaxs shakllanishi jarayoni murakkab va ko'p qirrali bo'lib, unda tafakkur muhim rol o'ynaydi. Tanqidiy tafakkur esa shaxsning o'z fikriga ega bo'lishi, mustaqil qaror qabul qilishi va jamiyatda faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Shu sababli ushbu maqolada tanqidiy tafakkurning shaxs rivojidagi o'rni keng yoritiladi.

Asosiy qism: Tanqidiy tafakkur – bu axborotni passiv qabul qilish emas, balki uni faol ravishda qayta ishlash jarayonidir. Tanqidiy tafakkurga yuzlangan ekanmiz, avvalo uning oddiy fikrlashdan farqini ajratib olishimiz kerak. Oddiy fikrlash ko'pincha tez va yuzaki bo'ladi. Inson ko'rgan yoki eshitgan narsasiga darhol ishonadi. Tanqidiy tafakkur esa sekinroq, lekin aniqroq, shubha bilan boshlanadi, tekshiruv bilan davom etadi, asoslangan xulosa bilan tugaydi. Masalan: Oddiy fikrlash: “Internetda yozilgan ekan — demak to'g'ri.”. Tanqidiy tafakkur: “Bu qaysi manba? Ishonchlimi? Boshqa manbalar nima deydi?”. Uning asosiy komponentlari tahlil (analiz), umumlashtirish (sintez), baholash va xulosa chiqarish hisoblanadi. Tanqidiy tafakkur

insondan mantiqiy fikrlash, dalillarga asoslanish va subyektiv qarashlardan xoli bo'lishni talab qiladi. Bu jarayon shaxsning intellektual rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Psixologiya fanida tafakkur insonning oliy bilish jarayonlaridan biri sifatida qaraladi. Tanqidiy tafakkur esa kognitiv jarayonlarning yuqori bosqichi hisoblanadi. U xotira, diqqat va tasavvur bilan chambarchas bog'liq. Shaxs rivojlanishida tanqidiy tafakkur muhim omillardan biri bo'lib, u shaxsning intellektual salohiyatini oshirish bilan birga, uning ijtimoiy moslashuvini ham ta'minlaydi. Globallashtirish sharoitida inson har xil mafkuraviy va axborot xurujlariga duch keladi. Tanqidiy fikrlaydigan shaxs manipulyatsiya qurboni bo'lmaydi, yolg'on xabarlarini haqiqatdan ajrata oladi. Tanqidiy tafakkur shaxsning biron-bir fikriga qaram bo'lishdan qutqaradi. Bu, ayniqsa, kasb tanlash, hayotiy muammolarni hal qilish va jamiyatda o'z o'rnini topishda muhim ahamiyatga ega. Bunday tafakkur turi insonni yangi g'oyalarga ochiq bo'lishga, o'z qarashlarini qayta ko'rib chiqishga va kreativ yondashuvlarni shakllantirishga o'rgatadi. Tafakkurni asosi nutq bo'lgani kabi, tanqidiy tafakkurning asosi ham muloqot qobiliyati va savol berish orqali rivojlanish hisoblanadi.

Tanqidiy tafakkur shaxsning ta'lim jarayonida ham muhim ro'l o'ynaydi. Shunday ekan, hozirgi zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri ham – o'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirishdir. Buning uchun muammoli ta'lim, munozara va debatlar, loyihaviy yondashuv va savol-javob kabi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchilarga tayyor bilim berish bilan cheklanmasdan, ularni fikrlashga undashi ham lozim. Bu esa ularning tanqidiy tafakkurini rivojlantiradi. Axborot texnologiyalari rivojlangan davrda inson har kuni katta hajmdagi ma'lumotlarga duch keladi. Ushbu ma'lumotlarni tahlil qilish va ishonchliligini aniqlash uchun tanqidiy tafakkur zarur. Bundan bilishimiz mumkinki, tanqidiy tafakkur har qanday sohada, masalan: siyosiy ongning shakllantirishida, iqtisodiy qarorlar qabul qilishda, ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega.

Tanqidiy tafakkur bo'yicha ilmiy tadqiqotlar juda keng bo'lib, ular pedagogika, psixologiya va falsafa doirasida olib borilgan. Tanqidiy tafakkur bo'yicha bir qancha olimlarning qarashlari ham mavjud. Bulardan biri Jon Dyui hisoblanadi. U tanqidiy tafakkurni “reflektiv fikrlash” deb atagan. Uning fikricha, inson har qanday g'oyani shubha va dalil orqali tekshirish kerak. Tanqidiy fikrlash – bu muammo ustida chuqur o'ylash va asosli xulosa chiqarish jarayoni. Xulosa qilib aytganda, Dyui nazariyasida tanqidiy tafakkur — faol, izlanishga asoslangan fikrlashdir. Yana bir mashhur olim Benjamin Bloom esa Bloom taksonomiyasini yaratgan. Bu modelda yuqori u darajadagi fikrlash bosqichlari: tahlil → sintez → baholashni keltirgan. Aynan shu bosqichlar tanqidiy tafakkurning asosi hisoblanadi. Bunga ko'ra, tanqidiy tafakkur — oddiy eslab qolish emas, balki chuqur tahlil va baholashdir. Tanqidiy tafakkur insonning bilimlarini chuqurlashtiradi. U nafaqat “nima?” balki “nega?” va “qanday?” savollariga javob izlashga undaydi.

Tanqidiy tafakkur insonda tug'ma ravishda to'liq shakllanmaydi. U ta'lim, tajriba va muhit ta'sirida bosqichma-bosqich rivojlanadi. Dastlabki bosqichda inson ko'proq tayyor bilimlarni qabul qiladi. Bu davrda savol berish va shubha qilish kam uchraydi. O'quvchi yoki talaba berilgan ma'lumotni haqiqat sifatida qabul qiladi. Keyingi bosqichda esa inson fikrlash jarayonida faollashadi. U "nega?", "qanday?" kabi savollarni bera boshlaydi. Turli fikrlarni solishtirish, muammoga turli nuqtayi nazardan qarash shakllanadi. Yuqori bosqichda esa shaxs to'liq tanqidiy tafakkur egasiga aylanadi. U mustaqil tahlil qiladi, dalillarni baholaydi va asoslangan qarorlar qabul qiladi. Eng muhimi, o'z fikrini himoya qila oladi va kerak bo'lsa uni qayta ko'rib chiqadi. Bu jarayon uzluksiz bo'lib, inson butun hayoti davomida o'z tafakkurini rivojlantirib boradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tanqidiy tafakkur o'quvchilarda: tahlil qilish, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilishni rivojlantiradi. Tadqiqotlarda muammoli o'qitish, bahs va munozaralar, savol-javob texnikalari kabi metodlar samarali deb topilgan. Yna bir tajriba shuni ko'rsatadiki, 150 nafar talaba ustida o'tkazilgan tadqiqotda mantiqiy xatolarni tahlil qilish orqali tanqidiy fikrlash sezilarli darajada oshgani aniqlangan. Bu shuni ko'rsatadiki, tanqidiy tafakkur amaliy mashqlar orqali rivojlanadi. Tadqiqotlar va olimlar fikrlarini umumlashtirsak: Tanqidiy tafakkur — mustaqil va dalillarga asoslangan fikrlash tizimi. U shaxsning intellektual rivojini ta'minlaydi, qaror qabul qilish sifatini oshiradi, axborotni tanlash va baholashga yordam beradi. Eng muhimi, u o'rgatiladigan va rivojlantiriladigan ko'nikma hisoblanadi. Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish uchun muntazam mashq va ongli yondashuv zarur. Eng samarali usullardan biri — savol berish odatini shakllantirish. Har qanday ma'lumotga nisbatan "nega?", "qanday?", "qayerdan?" kabi savollar berish fikrlashni faollashtiradi. Shuningdek, turli manbalarni o'rganish muhim. Kitoblar, ilmiy maqolalar va ishonchli axborot manbalari orqali insonning dunyoqarashi kengayadi. Munozaralarda ishtirok etish ham katta ahamiyatga ega. Bu jarayonda inson boshqalarning fikrini tinglaydi, o'z qarashlarini himoya qiladi va yangi xulosalarga keladi. Yana bir muhim usul — yozma tahlil qilish. Insho va esse yozish orqali fikrlar tartiblanadi va chuqurlashadi.

Xulosa qilib aytganda, tanqidiy tafakkur shaxs shakllanishida muhim o'rin tutadi. U insonning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal qilish qobiliyati va ijtimoiy faoliyatini belgilaydi. Tanqidiy tafakkur rivojlangan shaxs jamiyatda faol, mas'uliyatli va ongli fuqaroga aylanadi. Zamonaviy ta'lim tizimi tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Bu esa yosh avlodning raqobatbardoshligini oshiradi va ularning kelajakda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Shu sababli tanqidiy tafakkurni rivojlantirish nafaqat ta'lim tizimining, balki butun jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. John Dewey. *How We Think*. — New York: D.C. Heath & Co., 1910.
2. Richard Paul, Linda Elder. *Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life*. — Pearson Education, 2006.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. *Pedagogika va psixologiya asoslari*. — Toshkent, 2020.
4. O'gilxontolibjonovna, V. (2023). Axborot muhiti yoshlar ijtimoiy normalari shakllanishiga ta'sirini tadqiq etishning metodik jihatlarini. *Современное образование (O'zbekiston)*, (11 (132)), 15–22.
5. 6. Vaxabova, O'g'ilxon Tolibjonovna. (2024). Globallashuv sharoitida axborot muhitining yoshlar ijtimoiy normalari shakllanishiga ta'sirining psixologik jihatlarini. *Современное образование (O'zbekiston)*, (12 (145)), 46–51. https://doi.org/10.34920/so/vol_2024_issue_12_6
6. Daniel Kahneman. *Thinking, Fast and Slow*. — New York: Farrar, Straus and Giroux, 2011.
7. Edward de Bono. *Thinking Course*. — BBC Books, 1991.
8. 1. Nurullo o'g'li, A. A. (2023). SHARQ MUTAFAKKIRLARINING ASARLARIDA PSIXODIAGNOSTIKAGA DOIR QARASHLARI. TAPAQKIËT,
9. Guljahon, A. (2026). INSON ONGINING TARAQQIYOTI VA ONGSIZLIK JARAYONLARINING PSIXOLOGIK MOHIYATI HAMDA ULARNING O'ZARO BOG'LIQLIGI. *Ustozlar uchun*, 93(4), 387-391.